

МАКТАВ О'QUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA O'QITUVCHINING O'RNI

S.A.Abdullayeva

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya

Mazkur maqola ijod va ixtisoslashgan maktablarning yuqori sinf o'quvchilarida adabiyot fanidan tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchilarning pedagogik mahorati, o'quvchilarni qiziqitira olish, ularning o'zaro hamkorlik bilan bog'liq muhim masalalariga qaratilgan.

Annotation

This article is focused on the pedagogical skills of teachers in the development of research competence in literature among high-class students of creative and specialized schools, the ability to the interest students, and important issues related to their mutual cooperation.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, adabiyot, tadqiqotchilik ko'nikmalari, qobiliyatni rivojlantirish, o'qituvchi mahorati, kichik loyihalarda ishlash, ta'lim shakllari, shaxslik sifati, kompetentlik.

Key words: educational process, literature, research skills, ability development, teaching skills, working in small projects, educational forms, personality quality, competence.

Yurtimiz mustaqilligiga erishgandan so'ng barcha sohadagi o'zgarishlar kabi ta'lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Endilikda shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda berishdan ko'ra mustaqil fikrlashga o'rgatish va dars jarayonida o'quvchilarni erkin, o'z fikriga ega ishtirokchiga aylantirish borasida yangi-yangi yo'llar qidirilmoqda. Ta'lim berishning asosiy qurollari bo'lmish darslik, metodik qo'llanma, metodik tavsiyalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga, aqlan barkamol, o'z fikri va qarashlariga ega, ruhan sog'lom yoshlarni tarbiyalash ham ustuvor masala bo'lib kelmoqda. Bu borada o'quvchilarni maktab davridan tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Tadqiqot ko'nikmalari innovatsion jarayonlarda asosiy bo'lib, ular barqaror natijalarga, mamlakatning rivojlanishiga olib keladi. Tadqiqot ko'nikmalarining asosiy jihatlaridan biri bu tanqidiy fikrlashdir, bu vaziyatlarni holisona baholash, dalillarni shubha bilan tahlil qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Darslarni o'zlashtirishda mavzularni kichik tadqiqotlar shaklida o'quvchilarga

o'rgatilishi bevosita ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Bu esa ona tili va dabiyot darslarini o'zlashtirishni ilmiy-tadqiqotchilikka yo'naltirish imkonini yaratadi. O'quvchilarning sinfdan sinfga o'tish davomida ularning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning metodik mazmunini to'g'ri tashkil etish bosqichma-bosqich yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil ishlarini kichik loyiha ishlarini bajarish ko'nikmalari rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababdan mustaqil mulohaza yuritadigan, o'z faoliyati va uning natijalarini tahlil qila oladigan, ta'lim jarayonini modellashtira biladigan o'qituvchi qo'yilgan bu talablarning garovi hisoblanadi. Aynan shu ma'noda, bugun o'z sohasini yaxshi biladigan, erkin-ijodiy fikrlay oladigan, raqobatbardosh, shaxs tarbiyalashga qodir kompetentli o'qituvchiga talab oshib bormoqda. Zamon talabidan kelib chiqib, pedagog ham ijodkor o'quvchilarni tarbiyalashda o'zi ham birdek qobiliyatli bo'lishi lozim.

Ta'lim bilan bog'liq adabiyotlarda kompetentlik tushunchasiga juda ko'p olimlarning tadqiqiy fikr-mulohazalari keltirilgan. Kompetensiya □ bu inglizcha competence qobiliyat bo'lib har qanday faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakaga, mahorat va iqtidorga egalik demakdir. Kompetentlik esa har qanday shaxsning, xususan, o'qituvchilarning o'zi faoliyat olib borayotgan sohada samarali ish yuritishi uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga egaligi, ayni zamonda bu sifatlarning shaxslik fazilatlar bilan uyg'unligini anglatuvchi tushunchadir.¹ Tadqiqotchilik kompetensiyasi deganda biz tanlagan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko'nikmalarni deyishimiz mumkin. To'g'ri maktab o'quvchilarida ko'nikmalarini kompetensiya darajasiga ko'tarish biroz mushkul vazifadir, bunda o'quvchilarning bevosita tadqiqotchilik kompetensiyasini egallashi bosqichma-bosqich davom etadi. Ya'ni o'quvchi kichik tadqiqotlarni amalga oshirish davomida o'rganilayotgan obyektни tadqiq etishi uni mustaqil o'rganishi, izlanishi, adabiyotlarni o'qishi, internet ma'lumotlarini saralash kabi ilmiy faoliyatga yo'naltirish o'qituvchi hamkorligida bajarilgani bois, o'quvchi har doim ustozidan ma'naviy ko'makka va e'tiborga ehtiyoj sezadi. Bunday vaziyatda o'quvchilarning layoqatlari va qobiliyatlari aniqlanadi, ya'ni har bir o'quv predmeti maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'quvchilarning qiziqishlarini qamrab oladi.

Adabiyot darslari ham o'quvchilarni har tomonlama o'ziga jalb etadi. Yuqori sinf o'quvchilari 6-sinf yangi Adabiyot darsligida adiblarning umr yo'lini berish tajribasidan voz kechildi, balki asar jozibasini his etish va matn zamiridagi tag ma'nolarni anglashga qaratilgan savol va topshiriqlar soni ko'paytirildi. Eng ahamiyatlisi, bugungi kun texnologiyalariga hamohang ravishda adabiyot faniga

¹ Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent “innovatsion-ziyo”, 2022. 104 b

elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab olish maqsadida QR-kod yordamida multimedialni ilovalarni joylashtirish tizimi yaratildi. Buning natijasida o'quvchilar mobil qurilmalari vositasida matn va topshiriqlarning audiosini tinglab tushunish va asar asosida yaratilgan kinofilmlarni ham kuzatish va shu asosida xulosa chiqarish ko'nikmalarini ham o'zlashtirmoqda. Zamonaviy darsliklar xalqaro, jumladan, Finlandiya, Singapur, Janubiy Korea, Yaponiya ta'lim tizimi va dasturlarini o'rgangan holatda qayta ishlab chiqildi. Bu esa o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish uchun jahon tajribasidan foydalanish desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari adabiyotni o'qitish o'quvchilarda bilish, kommunikativ, go'zallik va ezgulikni his etish, undan zavqlanish va yomonlikdan nafratlanish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Bu hol umumta'lim o'quvchilarida to'la ma'nodagi shaxslik sifatlari shakllanishiga olib keladi. O'quvchilardagi tadqiqotchilikka yo'nalganlik ko'nikmalarini shakllanganligi va uni rivojlanishini indikatorlari quyidagilardan iborat:

- faoliyat maqsadini aniqlash ko'nikmasi;
 - predmetni, faoliyat vositalarini aniqlash, belgilangan harakatlarni amalga oshirish ko'nikmasi;
 - refleksiya, faoliyat natijalarini tahlil qilish (erishilgan natijalarni qo'yilgan maqsadlar bilan taqqoslash);
 - yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmasi;
 - olingan bilimlarni yangi sharoitlarga o'tkaza olish ko'nikmasi;
 - olingan bilimlarni qo'llab o'z harakatlarini rejalashtirish, boshka o'quv fanlararo o'quv loyhasini ishlab chiqishga intilish, amalga oshirish ko'nikmasi;
- axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini egallash, axborotni izlash, axborot
- kommunikatsiya texnologiyalar vositalari va internet tarmog'idan xavfsiz foydalanish ko'nikmasi shular jumlasidandir.

Yana shuni ta'kidlash kerakki tahlil qilish barcha fanlarni o'zlashtirish usullaridan biridir. Adabiyot darslarida badiiy asarni o'rganishda tahlil asosiy o'rinni egallaydi. Maktabda badiiy asarni tahlil qilish, adabiyotshunoslikdagi badiiy asar tahlilidan farq qiladi. Adabiyotshunoslikdagi badiiy asar tahlili asarga tegishli bo'lgan barcha nazariy ilmlarni qamrab oladi. Maktabda badiiy asar tahlili asarning faqat bir tomonini o'rganishga qaratiladi. Shunga qaramasdan o'qituvchi asarning barcha tomonlarini tahlil qilishga e'tibor qaratishi lozim. Maktablarda asar tahlili bu asarning g'oyaviy yo'nalishi, asar qahramonlari badiiy til vositalarini o'rganishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi tadqiqot ishidir. Asarning bosh g'oyasini aniqlash, asarni tushunishga undan ta'sirlanishga sabab bo'luvchi bosh omillardan biridir. Asarning tahlili uning shakliy-mazmuniy uyg'unligida amalga oshirilishi lozim. Bunda o'quvchilarning shaxsiy tajribasi ham hisobga olinishi lozim. Asar tahlilida uning janriy xususiyatlarini hisobga olish, o'qituvchi o'quvchilarda mustaqil

tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirib berishi lozim. Bu jarayon o'quvchilarda nafaqat asarni chuqur o'zlashtirish, balki tarbiyalash ularning ijobiy fazilatlarini tarkib toptirishga xizmat qilmog'i darkor. Badiiy asarni tahlil qilishning maqsad va vazifalari quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- Tarixiylik tamoyili □ asarda o'z aksini topgan tarixiy shart-sharoitlar va muammolarni aniqlash.
- Badiiy shakl mazmunini o'zlashtirish tamoyili □ badiiy asarni shakl va mazmun uyg'unligida anglashdir.
- Asarning matndan tashqari ma'lumotlarga tayanish tamoyili □ muallifning hayoti va ijodi u yashagan davr, muallif ijod etgan adabiy oqim kontekstida o'rganish.

Ushbu tamoyillar asosida o'quvchilar badiiy asarning o'zlariga notanish davr va hayot manzarasi bilan tanishadilar, shu asar tufayli ularga ma'lim bo'lmagan voqealar namoyon bo'ladi. Turmush voqealarini aks ettiruvchi har qanday adabiy asar ma'lum bir tarixiy sharoit bilan bog'langan bo'ladi. Asarga mavzu bo'lgan tarixiy voqealar muayyan davrning mahsuli hisoblanadi. Shu bilan birga, asarning o'zi ham tarixiy-adabiy haqiqat sifatida hayotga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Biror tarixiy davrni tushunish, o'sha davr hayotini o'rganish uchun birgina asardagi voqealar tasviri kifoya qilmayd. Lekin birgina asarning o'zi ham tasvirlangan davr haqida salmoqdor material berishi mumkin. Masalan Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani o'sha davr hayoti va kurashlari haqida to'la bo'lmasa ham, ma'lum tushuncha beradi. Tarixiy mavzuda yozilgan asarlarni baholashda tasvirlangan voqelik uni maydonga keltirgan tarixiy sharoit, asardagi qahramonlar, yozuvchining ularga munosabati kabi masalalarga alohida e'tibor berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. □ Toshkent «Innovatsiya-Ziyo», 2022
2. Abdukarimov H. Dars tahlili va uning metodikasi. □ Toshkent: umtoz so'z, 2010
3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2 □ jild. □ Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
4. L.M. Karakhonova Issues of developing research competence in students based on the project method// novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 Volume 9, ISSUE 9, Sep. -2023
5. G.N.Ibragimova. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: p.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. ... - Toshkent, 2017.
6. А.А.Губайдулин. Формирование исследовательской компетентности студентов в условиях проектного обучения: диссертация (к.п.н.), - Казань, 2011.